

## Xizmatlar sohasi

“2016 – 2020 yillarda xizmatlar sohasining rivojlantirish dasturi” ni amalga oshirilishi natijasida, 2018 yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 128,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 % ga oʻsdi.

Moliyaviy faoliyatni takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, texnik hamda texnologik yangilashlar natijasida hisobot davrida eng yuqori oʻsish surʼatlariga ijara xizmatlar boʻyicha 129,1 % ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari boʻyicha 118,3 % ga, taʼlim sohasidagi xizmatlar boʻyicha 116,9 % ga, sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlari boʻyicha 116,2 % ga, erishildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2018 yilning yanvar holatiga)

|  | mlrd. soʻm   | Oʻsish surʼati, % hisobida | Umumiy hajmga nisbatan % hisobida |
|--|--------------|----------------------------|-----------------------------------|
| <b>Jami xizmatlar</b>  | <b>128,6</b> | <b>106,0</b>               | <b>100,0</b>                      |
| <i>shu jumladan: xizmat turlari boʻyicha</i>                     |              |                            |                                   |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                            | 12,7         | 118,3                      | 9,9                               |
| moliyaviy xizmatlari   | 18,5         | 105,2                      | 14,4                              |
| transport xizmatlari   | 25,3         | 100,5                      | 19,7                              |
| <i>shu jumladan:</i>   |              |                            |                                   |
| avtotransport xizmatlari   | 24,4         | 100,7                      | 19,0                              |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari                                | 3,5          | 104,7                      | 2,7                               |
| savdo xizmatlari   | 41,5         | 100,7                      | 32,3                              |
| koʻchmas mulk bilan bogʻliq xizmatlar                            | 3,8          | 102,4                      | 3,0                               |
| taʼlim sohasidagi xizmatlari                                     | 3,8          | 116,9                      | 3,0                               |
| sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlari                          | 2,1          | 116,2                      | 1,6                               |
| ijara xizmatlari   | 2,8          | 129,1                      | 2,2                               |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni taʼmirlash boʻyicha xizmatlar | 4,3          | 100,8                      | 3,3                               |


|  | <i>mlrd. so'm</i> | <i>O'sish sur'ati,% hisobida</i> | <i>Umumiy hajmga nisbatan % hisobida</i> |
|--|-------------------|----------------------------------|--|
| boshqa shaxsiy xizmatlar   | 4,0               | 100,2                            | 3,1                                      |
| me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 1,5               | 107,0                            | 1,2                                      |
| boshqa xizmatlar   | 4,7               | 101,6                            | 3,6                                      |

### Raqamlar:

2018 yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 128,6 mlrd.so'mni tashkil etdi. Ijara xizmatlari o'sish sur'ati 129,1 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi ulushi 65,6%


### 2018 yil yanvar xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (32,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), transport xizmatlari (19,7 %), aloqa va axborotlashtirish


xizmatlari (9,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### 2017-2018 yillar yanvar oyida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



2017-2018 yillar yanvar oyida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich savdo xizmatlari bo'lib, 2018 yanvar oyida ko'rsatilgan savdo xizmatlari 41,5 mlrd.so'mni tashkil etgan hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33,2 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (100,7 %)ni, transport xizmatlari 25,3 mlrd so'mni tashkil etgan hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (100,5 %)ni, moliya xizmatlari 18,5 mlrd so'mni tashkil etgan hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,9 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (105,2 %)ni, Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 12,7 mlrd so'mni tashkil etgan hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,5 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (118,3 %)ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar oyida Xizmatlar sohasining korxonalar turlari bo'yicha ulushi, % da**



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik sub'ektining ulushi (65,6 %) ni, va yirik korxonalarining ulushi (34,4 %) ni tashkil etgan bo'lib, kichik tadbirkorlik sub'ektining yirik korxonalariga nisbatan ulushi ko'proq bo'lib, ya'ni 84,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi  
bo'limi**

Mas'ul: Sh.Usmonqulov  
(0371)-230-86-31  
(0367)-225-29-20